

TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYANI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Botirov Shonazar Askar o'g'li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktab menejmenti kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy iqtisodiyotda hamda ta'lismayda barqarorlikni ta'minlash va uni mustahkamlash jarayonida iqtisodiy integratsiyaning ta'sirlari tahlil qilingan. Shu bois uning o'ziga xos jihatlari ko'rsatilib, xulosalar qilingan. Bundan tashqari xalqaro tajribalar ham o'rinni olgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, iqtisodiyot, ilmiy-texnik jarayon, xorij tajriba, davlat va jamiyat, milliy ta'limga tizimi.

Zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri bu - ta'limga sohasi hisoblanadi. So'nggi yillarda ta'limga ijtimoiy roli ortib borishi, dunyoning aksariyat davlatlarida ham o'zgarib bormoqda. Ta'limga sohasi - ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostonart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'limga shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'tgan yillarda ta'limga tizimini isloq qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik baza yaratildi, bu intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilashga ko'maklashdi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda ta'limga tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining asosiy ustuvor yo'naliishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq, o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'limga sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limga rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi.

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'limga tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali respublikamiz milliy ta'limga tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'limga tarbiyada, maktab ta'limga tizimini eskirgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamic. Zoton, hozirgi zamon ta'limga tizimida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-xunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Bu bizning ta'lim tizimimizda, chet ellarda o'quv tarbiya ishlarining qo'yilishiga e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta'limi tizimlarida chet el ta'limini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarga xalq ta'limi vazirligidan tashqari Respublika o'quv-metodika markazi va pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institute tarkibida maxsus bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda, malaka oshirish markazi instititida bir qator kafedralar ish bilan shug'ullanmoqdalar. Ularga bevosita xamkorlik qilishda BMT ning O'zbekistonidagi vakolatxonasi, elchixonalar, Germaniya Xalqaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, «Silm A. SH.» firmasi, YUNESKO va YUNISEF ning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkiotlar yaqindan yordam bermoqdalar.[2] Darxaqiqat rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan xaqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

2018 yil 17 iyul kuni O'zbekiston Prezidenti huzurida ta'lim tizimi rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda inson resurslarini rivojlantirish poydevori bo'lgan, yoshlarda bilim, dunyoqarash va ma'naviyat asoslarini shakllantiruvchi umumiy o'rta ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalalari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari Jahon banki rahbariyati bilan uchrashuvda «inson kapitali»ga sarmoya kiritishni ko'paytirish masalasi muhokama qilinganligi hamda avvalgidek «arzon ishchi kuchi bo'lsa, chet el sarmoyasi keladi» degan siyosat hozirgi zamon talabiga mutlaqo to'g'ri kelmasligini alohida ta'kidlab, tegishli topshiriqlarni bergenliklari e'tiborga molik[1]

Jamiyatdagi integratsiya jarayonida insonning integratsiya - alohida elementlarni yig'ib, ularni birlashtirish, yaxlit holga keltirish deb tushunish mumkin.[3] Shuningdek, ko'pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun-mohiyatini aniqlash bo'yicha fikr bergenlar Hozirgi kunda "Integratsiya" tushunchasining aniq ta'rifi metodik adabiyotlarda, bu muammo bo'yicha

shug'ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflarda berilgan. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqeа hodisalarini bir necha tomondan ko'rishi muhim: mantiqiy va emotsiyonal tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog'lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog'lanish, ya'ni uzviylikni ta'minlash bugungi kuning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o'zaro bog'liqlikni ta'minmagan holda o'qitilmoqda.[4] Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda. Didaktika o'quv fanlarini integratsiyalashga bir qancha yondashuvlarni taklif qiladi, biroq hali bu jarayonning umume'tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko'pchilik pedagog olimlar ta'limdagи integratsion jarayonlarni o'rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko'radilar. Bu holat integratsiyaning dastlab fundamental tarmoqlarda amalga oshib, keyinchalik pedagogika sohasiga tarqalganligi bilan izohlanadi.

Ta'kidlash joizki, o'quv fanlari ilmiy fanlardan farq qiladi. Faqat bu farq ular mazmunida emas, balki bilimlarning berilish shakli, hajmi va bayon qilinish chuqurligida o'z aksini topadi. O'quv fanini o'rganishdan maqsad o'quvchini fandagi ob'ektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub'ektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim jarayonida yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba'zida u bir qancha o'n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O'quv jarayonida o'qituvchi bir yoki bir necha mashg'ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o'zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub'ektiv yangi bilimga "olib kelishi" kerak bo'ladi. Ya'ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni

boshqasiga olib o'tish bilan bog'liq bo'lib, u fanlararo aloqalarni o'rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil, 2029-dekabr.
2. G.I.XASANOVA "Ta'lim jarayonida dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari" Jizzax: 2020. 420 bet. 223 -225b
3. Xasanova, G. (2021). Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining Kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-780
4. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xadjibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: Darslik. – T.: Baktria, 2015. – 584 bet.
5. To'xliyev N., Xolmatov N.B., Ermamatov Sh.J., Haqberdiev Q.Q. O'zbekiston iqtisodiyoti. T.: «O'zME», 2018. -478 b.